



### 11 sinf Algebradan 7 – BSB savollari I variant

1. Idishda 15 ta shar bor, ularga 1, 2, 3, ... , 14, 15 sonlari yozilgan. Tasodifiy ravishda idishdan bitta shar olindi. Unda yozilgan sonning 4 ga bo'linish ehtimolligini toping. **(4 ball)**
2. Tanga uch marta tashlanganda raqam tomoni aynan ikki marta tushish hodisasining ehtimolligini toping. **(5 ball)**
3. 50 nafar o'quvchidan 28 nafari bananni, 20 nafari olmani yoqtiradi va 6 nafari ikkala mevani ham yoqtirmaydi. Ixtiyoriy tanlangan o'quvchining: **(8 ball)**
  - a) ikkala mevani yoqtirishining;
  - b) eng ko'pi bilan bitta mevani yoqtirishi;
  - c) olmani yoqtirishi sharti bilan bananni yoqtirishining;
  - d) bananni yoqtirishi sharti bilan olmani yoqtirmasligining ehtimolligini toping.
4. Firmada 5 ta erkak va 3 ta ayol ishchi ishlaydi. Tavakkaliga 3 kishi ajratildi. Ajratib olingan ishchilarning barchasi erkaklar bo'lishi ehtimolligini toping. **(6 ball)**
5. 4 ta mergan bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda bir martadan o'q uzishmoqda. Har birining nishonga tegish ehtimolligi 0,4 ga teng. Nishonga
  - a) 1 ta o'qing nishonga tegishi;
  - b) 2 ta o'qing nishonga tegishi hodisalarining ehtimolliklarini toping. **(7 ball)**